

## Imom Buxoriyning “Al-Jome As-Sahih” Asari Xususida Talabalrning Ilmiy Va Ma’naviy Qobilyatlarini Shakllantirish

*K. I. Marayimova<sup>1</sup>, N. T. Abdughalimova<sup>2</sup>*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada, buyuk bobokolonimiz Imom Buxoriyning hayoti va ijod yo‘llari va ularning asarlari haqida hamda ularning eng mashhur asarlaridan biri “Al-jome as- Sahih” asari haqida ma’lumotlar keltirilib o‘tilgan. Shuningdek, Buxoriyning ushbu asari talabalarda qanday tasavvur qoldirganligi va bu asar orqali talabalarning ilmiy va ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish haqida keng ma’lumotlar keltirilib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** falsafa, tarix, milliy qadriyat, hadis, maktablar, savod, zehn, ziyrak olimlar.

### KIRISH

Markaziy Osiyo falsafasi tarixida “Sahih” yo‘nalishining asoschisi eng yetuk va mashhur muhaddis Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydir. Imom Ismoil al-Buxoriy hadis ilmida “Amir-ul-mo‘minin”, “Imom al-muhaddisiyn” (“Barcha muhaddislarning peshvosi”) degan sharaflı nomga sazovor bo‘lgan. U 810-yilning 13-mayida Buxoroda tug‘ilgan. Go‘dakligida otadan yetim qolgan. Dastlabki savodini maktabda chiqargan. Shuningdek, allomaning o‘zi ham turli bahs va munozaralarda ishtirok etib, toliblarga dars ham beradi. Imom Ismoil al-Buxoriy iste’dodli, o‘tkir zehnli hamda ziyrak olim bo‘lgan. Manbalarga ko‘ra, Bag‘dod shahrida istiqomat qilgan vaqtida ko‘pincha qorong‘u kechalari sham yorug‘i va oyning nurida ijod qilib, kitob yozar ekan. Tunda yodiga bexosdan biror-bir fikr-mulohaza tushib qolsa, shamni yoqib, darhol o‘scha fikrni qog‘ozga tushirar, shu tahlitda ba’zan shamni yigirma martagacha o‘chirib-yoqar ekan. Imom Buxoriyning hadislar to‘plashga va “Al-Jome as-Sahih”ni yozishga kirishgani borasida turli fikrlar mavjud.

Imom Ismoil al-Buxoriy juda ko‘p zabardast olimlardan ta’lim oladi. Manbalarda alloma ustozlarining soni to‘qson nafarga yaqin bo‘lgan deb ko‘rsatiladi. Muhammad ibn Yusuf al-G‘artobi, Ubaydulla ibn Musa al-Abasiy, Abu Bakr Abdulla ibn az-Zubayr al-Hamiydiy, Ishoq ibn Ibrohim ar-Rahavayh, Imom Ahmad ibn Hanbal, Ali al-Madiniy kabi olimlar uning ustozlari sanaladilar. Imom Ismoil al-Buxoriyning o‘zi ham yirik va mashhur olimlar Ishoq ibn Muhammad al-Ramoziy, Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy, Muhammad ibn Xalaf ibn qutayba, Ibrohim al-Harbiy, Muhammad Iso at-Termizi, Muhammad ibn Nasr al-Marvaziy, Muslim ibn al-Hajjajlarga ustozlik qilgan. Imom Ismoil al-Buxoriy o‘ta kamtar, insonparvar, xulqodobda tengsiz, sahovatli inson ham bo‘lgan. U hadis ilmining yetuk olimi sanalsada, zamondoshlari hamda shogirdlaridan ham ilm o‘rgangan. Alloma bir ming sakson nafar muhaddisdan hadis eshitgan. Allomaning o‘zidan esa to‘qson ming nafar kishi ishonarli hadislarini eshitgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, Imom Ismoil al-Buxoriy 600 mingga yaqin hadisni to‘plagan. Jumladan, muhaddis 100 ming “sahih” va 200 ming “g‘ayri sahih” hadislarni yod olgan.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bugungi kunda, ko‘hna tariximiz, milliy qadriyatlarimiz, madaniy merosimizga e’tibor kuchayib, ulug‘ ajdodlarimiz – o‘lmas asarlar yaratib ketgan buyuk allomalarining hayoti va ijodini puxta o‘rganish hamda ulardan keng xalq ommasini bahramad qilish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Ana shunday zotlardan biri Abu Abdulla Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al-Mug‘iyra al-Buxoriy al-Ju’fiy (Imom Ismoil al-Buxoriy) islam olamida payg‘ambar hadislarini to‘plagan eng mashhur

<sup>1</sup> Ph.D, FarDU kata o‘qituvchisi, p.f.b.f.d

<sup>2</sup> FarDU 1-bosqich magistranti



shaxs bo‘lib, uning yozgan asarlari, Qur’onga bitgan sharhlari ta’lim va tarbiya jarayonida tengsiz ahamiyatga egadir. Uning bizgacha bir necha hadislari yetib kelgan.

Bugungi kunda Imom al-Buxoriy merosini o‘rganish va targ‘ib qilishda jamiyatimizda keng e’tibor qaratilgan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o‘zining oliy majlisiga murojaatnomasida shunday dedi: “Islom dining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib beradigan, barcha odamlarni ezgulik, mehroqibat va hamjihatlik yo‘liga birlashishga da’vat etadigan teran ma’noli fikr va g‘oyalar”<sup>1</sup> bevosita islom dinimiz va psixologik g‘oyalar bilan bog‘liq. Hadislar Barkamol insonni tarbiyalab o‘stirish masalasi hozirgi davrning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Buni hal etishda psixologlar, pedagoglar, sotsiologlar, faylasuflar o‘z qarashlarini fikr va mulohazalani bildirganlar. Islom dini ta’limoti asoslarini yorituvchi Qur’oni Karimdan keyingi asosiy manba hadis kitoblarining asosiy mazmunida ham inson shaxsi va uning kamoloti turadi. Barkamol insonni tarbiyalash jarayonida hozirgi va o‘tmish tajribalarini o‘rganib ularni umumlashtirgan holda amaliyotga tadbiq etilsa bu o‘zining ijobiy natijasini beradi. “Hadis” (arab. «xabar», «yangilik») yoki “Sunna” so‘zleri bir ma’noni anglatib, Rasulullohning hayoti va faoliyati hamda diniy va axloqiy ko‘rsatmalari haqidagi rivoyatlardan iborat. Keyingi yillarda Muhammad Alayhissalomning hayoti, faoliyati hamda uning diniy-axloqiy ko‘rsatmalarini o‘z ichiga olgan hadislar, Imom Ismoil al-Buxoriyning “Al-jome’ as-sahih” (“Ishonarli to‘plam”), “Al-adab al-mufrad” (“Adab durdonalari”), asarlari nashr etildiinsonga uning dunyoqarashiga ham jismoniy ham ruhiy jihatdan ta’sir qilishi va uning ko‘zlangan maqsadga qarab takomillashtirishning aniq tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib maskur asarni o‘rganish hamda barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishda uning yo‘llaridan va ko‘rsatmalaridan foydalanish davrimizning muhim vazifalaridan bo‘lib hisoblanadi.

Bugungi kundaq ajdodlarimizni meroiy kitoblarini o‘rganish orqali biz yoshlarda milliy qadriyatlarini o‘rganish va tariximizga bo‘lgan hurmat e’tibor va milliy bqadriyatlarga bo‘lgam talab nihoyatda kuchaymoqda. Biz yoshlar bu bilimlar orqali yanada tariximizga bolgan qiziqish nihoyatda ortmoqda. Yoshlar tarbiyasida buyuk muhaddis Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning sahib hadislari o‘quvchilar tarbiyasida eng muhim manbaa bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga kelajak avlodda ma’rifatli, bilimli, zakovatli, aqli va idrokli, baxtli va saodatli, odob- axloqli, pok hamda iffatli, sabr matonatli bo‘lib ulg‘ayish tuyg‘ulari shakllanib boradi. Imom al-Buxoriy hadislarida axloq masalasiga alohida e’tibor berilgan. Shuningdek, hadisi Sharifda «Ilm olmoqqa intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir» deydiladi. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning hadislarida insonning ma’naviy kamolga yetish uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar aks ettirilgan bo‘lib, bular mehr-oqibat ko‘rsatish, sahiylik, ochiq ko‘ngillilik, ota-onha va kattalarga, qarindoshlarga g‘amxo‘rlik, hurmat, faqir-bechoralarga muruvvat, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug‘lash, halollik, poklik, o‘zaro do‘s, tinchtotuv bo‘lish, ilmnинг qadr qimmati ilm o‘rganishga bo‘lgan muhabbat va boshqalardan iboratdir. Bundan tashqari, ma’naviy kamolga yetish uchun inson o‘zini qanday bo‘lmisin yomon illatlardan tiyish, har qanday yaxshilik sari intilish kerakligi borasidagi pand-nasihatlar ham axloqiy-ma’naviy tarbiyanı rivojlantirishda o‘z ifodasini topgan bo‘lib bularning barchasi Qur’oni Karim ko‘rsatmalaridan kelib chiqadi va komil insonni shakllantirish mezoni sifatida hozirgi kunda yoshlarimizda ma’naviy tarbiya uchun yetakchi omillardan biri sanaladi.

## NATIJA VA MUHOKAMALAR

Yoshlardagi ma’naviy bo‘shliqni to‘ldirish uchun ularni turli tajovuzlardan himoya qilish uchun avvalo ularning qalbida Vatanimizga bo‘lgan muhabbatni yanada kuchaytirish, buyuk tariximizni, milliy urf-odatlarimizni qalblariga singdirish zarurdir. Yana milliy o‘zligimizga salbiy ta’sir ko‘rsatgan milliy qadriyatlarimizni rivojlanib borishiga to‘sinqlik qilgan, o‘zligimizdan ayirmaqchi bo‘lganlarni, eski zamonlardan qolib kelayotgan noma’qul odatlar haqida ham ochiqso‘z yuritishimiz zarur. Birinchi navbatda hudbinlik va loqaydlik, qarindoshurug‘chilik va mahalliychilik, manfaatparastlik va korrupsiya, o‘zgalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay halos etish to‘g‘risida chuqur o‘ylashimiz kerak. Jumladan yoshlar tarbiyasida buyuk muhaddis Imom al-Buxoriyning hadislari va asarlari o‘quvchilar tarbiyasida eng muhim manbaa bo‘lib xizmat qiladi. Muhammad salollohu alayhi vassalam o‘z hadislarida: «Ilmga ilm olmoq yo‘li bilan erishilgaydir. Ilm-u hunarni Xitoya borib bo‘lsa ham o‘rganinglar. Ilm egallang. Ilm sahroda do‘s, hayot yo‘llarida tayanch,



yolg‘iz damlarda yo‘ldosh baxtsiz daqiqalarda rahbar, qayg‘uli onlarda madadkor, odamlar orasida zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashishda quroldir» deydi. Demak, hadislar mazmunan har bir mo‘minning ishonchini, e’tiqodini mustahkamlaydi va shu bilan birga insonni ma’naviy kamolotga da’vat etadi. Shunday ekan, hadislar komil insonni shakllantirishda muhim manbaa bo‘lib xizmat qiladi va undan yoshlardan tarbiyasida foydalanish shu kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi

Biz ko‘z o‘ngimizda dunyoning turli joylarida ro‘y berayotgan iqtisodiy va ijtimoiy, axborotkommunikatsiya manzarasidagi chuqur o‘zgarishlar, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda yashamoqdamiz. Hammamizga ma’lumki har qanday kasallikning oldini olish uchun avvalo kishi organizmida unga qarshi kurashuvchi immunitet hosil qilinadi. Shunday ekan biz yoshlardan ongida ham ona Vatanimizga bo‘lgan muhabbatimiz, qadimiy boy tariximizga, otabobolarimiz kabi o‘z dinimizga sadoqat tuyg‘ularini yanada shakllantirishimiz, kelajak avlodlarga yetkazib, kerak bo‘lsa ularning ongida va qalbida mafkuraviy, ma’naviy immunitetni kuchaytirishimiz muhim o‘rin tutadi. Toki yoshlardan milliy o‘zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqurroq anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo‘lib yetishsin. Ana shundagina johil aqidaparastlarning ham ahloq-odob tushunchalarini rad etadigan, bizlar uchun mutlaqo begona g‘oyalar ham ularga o‘z ta’sirini o‘tkaza olmaydi.

Mafkuraviy ziddiyatlar avj olgan bugungi globallashuv davrida internet va ijtimoiy tarmoqlarda yoshlardan ongini zaharlashga qaratilgan tahdidlar tobora avj olib bormoqda. Achinarlisi, buning natijasida ayrim yoshlardan orasida ommaviy madaniyatga ergashish, axloqsizlik, jinoyatchilik yo‘liga kirish, kashandalik, giyohvandlik, spirlli ichimliklarga ruju qo‘yish, o‘z joniga qasd qilish, milliy va diniy qadriyatlarga hurmatsizlik, ekstremizm va radikalizm kabi ijtimoiy illatlarga berilish holatlari kuzatilmoxda. Hozirgi vaqtida yoshlarni turli ijtimoiy illatlari, xususan, ekstremizm va terrorizm ta’siridan asrab-avaylashning eng muhim omillaridan biri bilim hisoblanadi. Yoshlardan qanchalik bilimli bo‘lsa, ularning adashib yot yo‘llarga kirib qolishlari ham shunchalik kam kuzatiladi. “Jaholatga qarshi ma’rifat” ezgu g‘oyasining asosiy mohiyati ham shundan iborat. Biz yashab turgan bugungi davrda har qanday tahlikali fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish har qachongidan ham dolzarb masala bo‘lib turibdi. Johilga johillik bilan qarshilik ko‘rsatish yonib turgan olovga yog‘ sepish bilan barobar. Negaki, jaholat botqog‘iga botgan kishi o‘zini tubanlikda emas, yuksakda deb hisoblaydi, unga kimdir jahl qilgani sari jazavasi qo‘ziydi. Shu bois, jaholatga qarshi faqat ilm va ma’rifat bilan kurashish kerak.

**Xulosa qilib, aytish mumkunki** Imom Buxoriyning har bir asarlarida milliy qadriyatlarimiz ilm-u madaniyat masalaalari bu madaniyat tushunchalari haqida ham judayam ko‘p ma’lumotlar berilgan. Buyuk ajdodlarimizning asarlari orqali biz yoshlardan tariximiz haqida va millliy meroslarimiz ularni asrab avaylab, o‘qib o‘rganishimiz yanada ko‘proq bilimlarga ega bo‘lishimiz zarur.

#### Foydalilanigan adabiyotlar:

- Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Muqaddima. 1-Juz. – T.: Sharq, 2004.
- 1001 mavzuda 1001 hadis (Sharh va ilovalari bilan). O‘zbekiston, NMIU, 2020-yil.
- Oltin Silsila: 1-juz. Sahihul Buxoriy. – Toshkent: “Hilol-nashr”, 2016. 4. Qobulov N. “Sahihu-l-Buxoriy”ning yozilishi tarixi va uslubi // Imom Buxoriy saboqlari, 2009.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyayevning Oliy majlisiga murojatnomasi.
- Xo‘jageldi Alimov.Din psixologiyasi.- “Qaqnus media”.Toshkent-2019.B-11
- O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” T.: Davlat ilmiy nashiryoti, 2003.
- Shovosil ZIYODOV, Jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashishning samarali modeli
- Bobomurod oglu, O. B., & Abdulla oglu, J. B. (2023). IMOM AL BUXORIYNING HADISLARINI YOSHLAR TARBIYASIDA TUTGAN ORNI.



9. Egamberdiyev, O. A. O., Turdaliyev, A. Y. O., & Maxamadjonov, J. Z. O. (2021). Kasbiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik asoslari. *Science and Education*, 2(11), 985-991.
10. Zarnigor, R. A. Q., Egamberdiyev, O. A. O. G. L., & Sotvoldiyeva, O. M. R. Q. (2021). Pedagogik kompetentlikning: nazariy va amaliy tahlili. *Science and Education*, 2(9), 309-314.
11. Egamberdiyev, O. A. O., Sotvoldiyeva, O. M. Q., & Turdaliyev, A. Y. O. (2021). PEDAGOGIK MAHORATNING MUAMMOLI O'ZLASHTIRISH YO'LLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 535-542.
12. Yusufovich, A. A., & O'G'Li, E. O. A. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOIK ASOSLARI. *Science and innovation*, 1(B3), 40-46.
13. Alisher o'g'li, E. O. (2022). O 'ZBEKİSTONDA MADANIYAT VA SAN'AT TARIXI MASALALARI. *Journal of new century innovations*, 14(3), 33-36.
14. Alisher o'g'li, E. O. (2022). O'QUVCHILARNI TANQIDIY FIKRLASHGA O'RGATISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Journal of new century innovations*, 4(1), 52-59.
15. Alisher o'g'li, Y. O. (2022). IJTIMOIY MUHITNING SHAXS RIVOJLANISHIGA TA'SIRI. *PEDAGOGS jurnali*, 18(1), 220-225.
16. Yusufovich, A. A. (2020). ISSUES OF FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE, WHICH IS AN INTEGRAL PART OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(7).
17. Tojimamatov, J., & Egamberdiyev, O. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON.
18. Egamberdiyev, O., Kholdarova, Z., & Khusanova, M. (2022). THE ORDER OF THE APPEARANCE OF THE PEOPLE'S DIPLOMACY OF THE GREAT SILK ROAD COUNTRIES.
19. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). NEED TO FORM CREATIVE COMPETENCE IN EDUCATORS. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(3), 162-165.
20. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL ACTIVITY OF EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(3), 166-169.
21. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). DIFFERENT APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SPEECH. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(3), 158-161.
22. Oyatillokh Alishero'g'li, E. (2022). Ways and Methods of Formation of Communicative Competence in Future Teachers. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(4), 63-65.

